

TIBBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINIG O'RNI

Salomov Shoxabbos Nozimjon o'g'li
Andijon Davlat Tibbiyot Instituti 4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Dotsent Aliyev Husniddin Maxmudovich

Annotatsiya. Tibbiy ta`lim xalq salomatligi kelajagini belgilab berishi shubhasiz. Mazkur maqolada tibbiy ta`limni rivojlantirishda innovatsion ta`lim texnologiyalarini qo`llashning amaliyatga joriy etilishi, istiqbollari muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: Tibbiy ta`lim, innovatsion ta`lim, texnologiya, qonun, metod.

KIRISH

Bugun O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayonida katta islohotlarda amalga oshirilmoqda. O‘quv reja va undagi fan bloklari tarkibida qaysi fanlarni o‘qitish eng dolzarb masaladir. Bugungi kunda insonlar salomatligini saqlash borasida faol, oydali ishlarni amalga oshirish, xalqimizning tibbiy madaniyatini yuksaltirish eng muhim dolzarb masaladir. Tibbiyot ilm-faniga ham moddiy, ham ma’naviy e’tiborni kuchaytirish, fundamental va ilmiy-innovatsion tadqiqotlar natijalarini hayotga joriy etish orqali jamiyatda tibbiy madaniyatning yuksalishiga erishiladi. Natijada bu zamonaviy milliy tibbiyot ravnaqining ta’minlanishiga ijobiy ta’sir etadi. Ma’lumki, tibbiy madaniyat jamiyat kelajagining mustahkam poydevoridir. Bu borada avvalo, oli ta`lim muassasalari talabalarining tibbiy madaniyatga ega bo‘lish zaruriyatini anglashi va unga qat’iyat, o‘ziga ishonch va mas’uliyat bilan yondashib, tibbiy bilimlarni o‘zlashtirishga jiddiy e’tibor berishi, tibbiy faoliyatning nazariyasi va amaliyoti bilan chuqurroq tanishishi, bilimlarni hayot va amaliyot bilan bog‘lay olishi zarur. Juhon miqyosida sog‘liqni saqlash va tibbiy ta’lim sohasidagi rivojlanish tendensiyalari ta’lim sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Uzluksiz tibbiy ta’lim akkreditatsiya markazi (Accreditation Council for Continuing Medical Education - ACCME) va Amerika tibbiyot assotsiatsiyasi (American Medical Association) kabi nufuzli tashkilotlar tomonidan tibbiy ta’limni samarali tashkil etishda innovatsion pedagogik muhitni yaratish, o‘qitishning yangi paradigmalarini ishlab chiqish hamda nazariya va amaliyot integratsiyasini rivojlantirish tavsiya qilingan. O‘qituvchi faoliyatining samaradorligi o‘quv materialini to‘plash, qayta ishlash va o‘qitishda hamda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, raqamlı asrda ta’lim qayta ko‘rib chiqilishi shart.

ADABIYOTLAR SHARHI

“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-sod Farmoni bilan tasdiqlangan. Konsepsiyaning maqsadi – o‘qitish jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari va didaktik modellarni rivojlantirish va ulardan samarali foydalanish orqali ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashdirish, shu bilan birga oxirgi yangi qurilmalardan foydalangan holdat’lim olish imkoniyatini ta’minlashdir. Bu borada eng muhim vazifalardan biri o‘qituvchining ixtirochiligi va ishbilarmonligini oshirgan holda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanishga erishish, video ma’ruzalar va innovatsion ta’lim texnologiyalari markazlarining milliy tarmog‘ini yaratish, o‘zaro raqamli aloqalarning strategik rejasini yaratish va amaliyatga joriy etish, O‘quv jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish, ijodkor va iqtidorli talabalarni raqamlashtirish loyihalariga jalb etish, yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan raqamli qurilmalar bilan jihozlangan tuzilmalar, o‘quv xonalari, laboratoriylar, mediastudiyalarning jamlanmasi asosida “Raqamli kompetensiyalar markazlari”ni tashkil etish orqali orttirilgan tajribani amaliy qo‘llashga erishish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash, pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzuksiz rivojlantirish va hokazo.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O‘zbekistonda tibbiyot sohasi jahon tibbiyoti taraqqiyotiga hamohang tarzda jadal rivojlani6 bormoqda. Tinchlik va sog‘lik – inson hayoti uchun eng kerakli ne’matlar. Xususan, tibbiyot yunalishida birlamchi tibbiyot bo‘g‘inini kasallikni erta aniqlaydigan va davolaydigan tizimga aylantirish, ixtisoslashgan markazlar tomonidan joylarda tor doiradagi tibbiy xizmatlar hajmini oshirish va sifatini tubdan yaxshilash, raqamlashtirish orqali sohada qog‘ozbozlik, byurokratiya va korrupsiyani keskin qisqartirish, tibbiyotning barcha yo‘nalishlarida raqobatni rivojlantirish va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, tibbiyot xodimlari bilimini oshirish, ta’lim va ilm-fanni rivojlantirishga jiddiy e’tibor berilmokda. Shuningdek, elektron xukumat imkoniyatlarini yanada kengaytirish, hamda raqamli texnologiyalardan keng foydalanishni ta’minlash maqsadida “istiqbolli innovatsion ishlanmalar va startap-loyihalarini amalga oshirish hamda ularni tijoratlashtirish” ga jiddiy e’tibor berildi.

Tibbiy xodimlar tayyorlash metodikasini innovatsion texnologiyalardan foydalanib takomillashtirishda pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirish ta’limning mazmun va mohiyatini takomillashtirishga olib keladi. An’anaviy va zamonaviy axborot texnologiyalari muhitidagi pedagogik ta’limlarning asosiy ko‘rsatkichlarini taqqoslash axborotlashtirilgan pedagogik ta’limning istiqbolli ekanligini yaqqol namoyon qildi. Buni quyidagi fikrlar asosida ham tasdiqlash mumkin. An’anaviy didaktika o‘z oldiga shaxsni aqliy rivojlantirish, uning o‘quv faoliyatida bilimni o‘zlashtirish, malaka va ko‘nikmalarini egallash jarayonini

optimallashtirishga qaratilgan metodik usullarni yaratishga qaratilgan o‘qitish nazariyasini shakllantirishni maqsad qilib qo‘yadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida didaktika, zamonaviy axborot texnologiyalaridan faol foydalanish orqali bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyatining keng jabhali turlarini taklif etadi. Bunda didaktika fikrlashni, shaxsning qobiliyat va imkoniyatlari darajasini, estetik didni, axborot madaniyatini, bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishni, o‘quv-axborot faoliyatiga oid ko‘nikma va malakalarini rivojlantiradi.

Bizning fikrimizcha, zamonaviy axborot texnologiyalarini pedagogik ta’lim jarayonlariga joriy etish talaba shaxsining:

- fikrlashini;
- optimal qaror qabul qilish malakasini;
- kommunikativ qobiliyatini;
- estetik tarbiyasini;
- kasbiy malaka va ko‘nikmalarini;
- axborot madaniyatini rivojlanishini ta’minlaydi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari, o‘quv-tarbiya jarayonlarining barcha bosqichlarini jadallashtiradi. Bunda axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida, ta’lim jarayonining sifati va samaradorligini oshishi, talabalarning bilish faoliyatlarini intensivlashuvi, fanlararo aloqadorlikning chuqurlashuvi kuzatiladi.

Tibbiy madaniyat — salomatlik garovi deyiladi . Xalqimiz salomatligini asrash, yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli sa’y-harakatlar natijasida yurtimizda epidemiologik vaziyat barqarorligi ta’milanmoqda. Bugungi kunda shaxsiy gigienaga amal qilish, niqob taqish, yo‘talganda og‘iz va burun qismlarini ro‘molcha bilan berkitish, - ovqatlanishdan oldin qo‘llarni sovunlab yuvish, ko‘proq vitaminga boy ichimliklar va taomlarni iste’mol qilish tavsiya etilmoqda. Aholining shaxsiy gigiena qoidalari va profilaktika borasida xabardorligini oshirish alohida ahamiyatga ega. Ommaviy axborot vositalari va ko‘rgazmali targ‘ibot materiallari orqali doimiy ravishda kasallanishning salbiy oqibatlari, uning murakkablashish hollari va immunitet mustahkamligining afzalligiga oid tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Shunga alohida e’tibor berish zarurki, o‘z salomatligiga e’tiborli, jismonan faol, belgilangan muddatlarda tibbiy ko‘rikdan o‘tib, uning xulosalariga to‘la amal qilgan inson xastalikka yo‘liqmaydi. Zotan, ana shunday yuksak tibbiy madaniyat va sog‘lom turmush tarziga rioya etish orqali nafaqat o‘zimizning, balki kelajak avlodlarimizning ham salomatligini himoyalashga erishamiz. Yoshlarning tibbiy madaniyatni oshirishda kuyidagi jihatlarga e’tibor berish zarur hisoblanadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Bizning fikrimizcha, tibbiy xodimlar tayyorlash metodikasini innovatsion texnologiyalardan foydalanib takomillashtirishda ta’lim- tarbiyaning psixologik-pedagogik maqsadlarini amalga oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan

foydalanimish, ta'lim tizimida elektron axborot- ta'lim muhitini tashkil etish, ta'lim sohasining elektron axborot-ta'lim resurslarini yaratish, kompyuter texnologiyalarini joriy qilish amaliyoti va metodologiyasi bilan ta'minlash nazarda tutiladi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

- 1.O`ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI INNOVATSION FAOLIYAT TO`G`RISIDA O`zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOEV Toshkent sh., 2020 yil 24 iyul, O`RQ-630-son
 - 2.“O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA`LIM TIZIMINI 2030 YILGACHA RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI”, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan.
 - 3.O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONISOG`LIQNI SAQLASH TIZIMIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLARNI IZCHIL DAVOM ETTIRISH VA TIBBIYOT XODIMLARINING SALOHIYATINI OSHIRISH UCHUN
 - 4.ZARUR SHART-SHAROITLAR YARATISH
TO`G`RISIDAO`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOEV Toshkent sh., 2021 yil 5 may, PF-6221-son.
 - 5.O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI " RAQAMLI O`ZBEKISTON - 2030" STRATEGIYASINI TASDIQLASH VA UNI SAMARALI AMALGA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO`G`RISIDA O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. MIRZIYOEV Toshkent sh., 2020 yil 5 oktabr, PF- 6079-son.
- 1.Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar / Ta'lim muassasalari pedagogo'qituvchilari uchun amaliytavsiyalar. – T.: “Iste'dod” jamg‘armasi, 2018. – 180 b.